O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI
UNIVERSITETI

# GLOBAL TA'LIM VA MILLIY METODIKA TARAQQIYOTI

mavzusidagi VIII an'anaviy respublika ilmiy-amaliy anjumani
MATERIALLARI

Toshkent
2024-yil, 26-aprel

**UOʻK:378.147(575.1)**

“Global ta’lim va milliy metodika taraqqiyoti” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari [Матн] / — Toshkent: “Anorbooks”, 2024. — 488 b.

Mazkur to’plamdan tilshunos va adabiyotshunos olimlar, metodistlar, akademik litsey hamda umumta’lim maktabi oʻqituvchilari, tadqiqotchilar, magistrant, talabalarning maqola va tezislari oʻrin olgan. Toʻplamda global ta’lim va milliy metodika, ona tili va oʻzbek (davlat tili) tilini oʻqitish, adabiyot fanini oʻqitishda zamonaviy yondashuvlar hamda til va adabiyot ta’limida innovatsion gʻoyalar kabi mavzular oʻz aksni topgan.

Toʻplam ona tili, oʻzbek (davlat) tili va adabiyoti ta’limi, uni oʻqitish metodikasi sohasidagi mutaxassislar, tadqiqotchilar, magistrant hamda talabalar uchun moʻljallangan.

**Toʻplovchi va nashrga tayyorlovchilar:**
M.Abdullayeva, I.Ishonxonova, S.Inomjonova, F.Qulsaxatov, M.Elboyeva, M.Qosimova

**Mas’ul muharrir**
pedagogika fanlari doktori, professor R.Niyozmetova

**Taqrizchilar:**
pedagogika fanlari doktori, dotsent K.Mavlonova
pedagogika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), dotsent S.Kambarova

Ushbu toʻplam Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universiteti Ona tili va adabiyoti ta’limi fakulteti “Oʻzbek adabiyoti ta’limi” kafedrasi tomonidan “Global ta’lim va milliy metodika taraqqiyoti” mavzusida 2024-yil 26-aprelda oʻtkazilgan Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallaridan tashkil topgan.

*Toʻplamdan oʻrin olgan maqolalarning ilmiy saviyasiga mualliflarning oʻzlari mas’uldirlar.*

**UOʻK:378.147(575.1)**

bir-biriga bogʻliq boʻlmagan ikkita narsa, bu yerda noma’lum narsa ma’lum narsaning xususiyatlariga oʻxshatish orqali tasvirlanadi.

Bular xayol bilan anglashiladigan metaforalarning tegishli vizual koʻrsatkichlardagi unsurlar nuqtayi nazaridan turklarning mustaqilligini ifodalashiga ishoradir. Qolaversa, ana shu unsurlarning barchasi tomoshabinda voqelikni idrok etishni, sahnadagi rivoyat izlarini mustahkamlovchi omillar boʻlgan. Ssenariyda hikoyani qayta ishlash intertekstuallikning namunasidir, bu Kristeva tomonidan ilgari surilgan nazariya boʻlib, har bir matn boshqa matndan foyda oladi. Boshqa nuqtayi nazardan qaraganda, intertekstuallik predmeti boʻlgan til belgilarining butunligi nuqtayi nazaridan semiotikaning muhim sohalaridan biri sifatida belgilanadi: “Xalq ertaklari an’anaviy tarzda tarqaladigan yoki ta’siri bilan shaklini oʻzgartiruvchi allegorik ifodadir, jamiyat tasavvurining”, afsonalar paydo boʻladi. Ijtimoiy tuzilma bilan yogʻurilgan miflar oʻz xabarlarini yashirincha berib, hayot tarzini tiklab turadi. Bartning miflar haqidagi koʻrsatkichlar nuqtayi nazaridan ta’kidlagan eng hayratlanarlisi miflarning ijtimoiy voqelikni oʻzgartirishdagi lingvistik funktsiyasidir [Bircan, 2015: -B. 27]. Demirji Aktemur Kogon Kayixonning markazida boʻlgani uchun koʻrsatkichlar va tahlil mavzusi boʻlgan tegishli sahnada aytib oʻtgan hikoya, aslida mif misolidir. Bartning yon ma’nosida ham oʻz oʻrniga ega boʻlgan miflar bu jihatdan turklarning ijtimoiy voqeligidan ozodlikdan mahrum boʻla olmasligi, bu maqsadda temir togʻlarni ham eritganliklari va uni eritishdan tortinmasliklari haqida. yana kerak boʻlsa, har qanday sharoitda ham turklarning qat’iyati va e’tiqodidan oʻch olishlarini, bular turk mifologiyasiga ishoralar, ularning magʻlubiyatlari vaqtinchalik, hech qachon bukilmaydigan bir xalq edilar. Ayni paytda turkiy urf-odatlar, turk davlati an’analari, turk dunyosiga hukmronlik qilish gʻoyasi, islomiy e’tiqod, islom qonuni va undagi adolat, mardlik, saxovat, erkinlik, ba’zan bittaga, ba’zan bir nechtaga, shuningdek, bir nechta joʻnatishga ruxsat berdi. Shu bilan birga, sanab oʻtilgan masalalar turkumdagi eng koʻp havola qilingan nuqtalar edi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Акбарова М.И. Ўзбек ва инглиз тилларида атоқли отларнинг лингвомаданий хусусиятлари: маг... дисс. – Тошкент, 2015.
2. Gulyamova Sh. Oʻzbek tili gender xoslangan efvemizlarining qisqacha izohli lugʻati. – Тошкент, 2019. -B. 46.
3. Вильданова Г.А. Гендерный аспект эвфемизации (на материале английского языка): дис... кандидата филологических наук. – Бирск, 2008. – С. 39-47.
4. Bem S. Gender schema theory: A cognitive account of sex typing. Psychological Review. 1981. -P. 354-364
5. Yusupova G. Sobirova Sh. Muloqot jarayonida genderologik xususiyatlarning aks etishi. 2022: -B. 94
6. Проблема гендерного неравенства в педагогическом образовании (Аналитическая информация по результатам «фокус-группового» социально-психологического исследования). — М.: ПЦ “Фолиант”. 2003.
7. Тухтасинов И.М. Лингвокультурологические и гендерные особенности сложных слов в художественном тексте (на материале английского и узбекского языков) автореф. дисс. ... канд. филол. наук. Ташкент, 2011.
8. Белянин В. П. Психолингвистика [BelyaninV.P. Psycholinguistics]. 2-е изд. М.: Флинта: Московский психолого-социальный институт 2004.

## TIL TA’LIMIDA RAQAMLI YONDASHUVLAR

**Sanobar Kuldasheva**
Alisher Navoiy nomidagi ToshDOʻTAU katta oʻqituvchisi
*kuldashevasanobar01@gmail.com*

**Annotatsiya:** Maqolada ona tilini oʻqitishda zamonaviy yondashuvlar, til ta’limida multimedia vositalaridan unumli foydalanish, metodik dasturlarning yaratilishi, darslik va oʻqituvchi kitoblarida

giperhavolalarning berilishi va ushbu imkoniyatlar orqali oʻquvchilarni fanga qiziqtirish haqida fikr yuritilgan. Multimedia vositalari hamda multimedia dasturlari farqlangan. Chiziqli va chiziqli boʻlmagan multimedia turlari haqidagi ma’lumotlar ilmiy sharhlanib, asosan, darsning qaysi bosqichlarida tegishli turlaridan samarali foydalanish izohlab berilgan.

**Kalit soʻzlar:** raqamli yondashuv, multimedia vositalari, giperhavola, chiziqli multimedia, chiziqli boʻlmagan multimedia, multimedia dasturlari, internet resurslar, jismoniy tashuvchilar.

**Annotation:** The article discusses modern approaches to teaching the mother tongue, the effective use of multimedia tools in language education, the creation of methodological programs, the provision of hyperlinks in textbooks and teacher’s books, and the use of these opportunities to interest students in science. Multimedia tools and multimedia programs are distinguished. Information about linear and non-linear types of multimedia has been scientifically interpreted, mainly in which stages of the lesson the effective use of the relevant types has been explained.

**Key words:** digital approach, multimedia tools, hyperlink, linear multimedia, non-linear multimedia, multimedia programs, Internet resources, physical carriers.

Ta’limda kompyuter va multimedia vositalaridan foydalanish va uni tatbiq etilishi haqida koʻpgina ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Multimedianing yaratilishi va uning rivojlanish jarayoni uning muhim texnik va dasturiy ta’minoti boʻlgan kompyuterning paydo boʻlishi va takomillashuvi bilan bogʻliq. Jamiyatimizda innovatsion axborot texnologiyalaridan oʻquv jarayonlarida samarali foydalanish va uni qoʻllashga boʻlgan talab, unga boʻlgan qiziqish va e’tibor tobora kuchayib bormoqda. Albatta, buning muhim sabablaridan biri shuki, an’anaviy ta’limda e’tibor faqat tayyor hosil qilingan bilimlarni egallashga, grammatik qoidalarni yodlashga qaratilgan. Zamonaviy pedagogika esa oʻquvchilarning egallayotgan bilimlarini oʻzlari saralab topishga, mustaqil fikrlab tahlil qilishga, oxirgi yechim va xulosalarni erkin keltirib chiqarishga, hatto oʻz bilimlarini xolisona baholashga oʻrgatadi. Zamonaviy pedagogika talablari multimedia vositalari orqali qiyinchiliksiz amalga oshiriladi. “Ta’lim muassasalarida mediamadaniyatni ta’lim va medianing integratsiyasi asosida rivojlantirish faoliyatini yoʻlga qoʻyish, medibilimlarni integrativ yondashuv asosida takomillashtirish orqali mediakompetentlikni rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda”[ Рустамова, 2019: 3]. Darhaqiqat, bugungi kunda bilim olishimiz, yashashimiz, hayot tarzimiz, jamiyatdagi oʻrnimiz – barchasi media bilan bogʻliqdek goʻyo. Mediarivojimiz, mediamadaniyatimiz jamiyatdagi oʻrnimizni belgilashda ham muhim rol oʻynayapti. Shuning uchun bugungi kunda maktabgacha va maktabdagi ta’limni media bilan integratsiyalash oʻquvchiga ham qiziqish uygʻotadi, ham hayot bilan yaqinlashtiradi. Shu jihatdan darslarni multimedia vositalaridan foydalangan holda tashkil etish tobora dolzarblik kasb etib bormoqda.

“Qayd etish lozimki, bu tip texnologiyalar mutlaqo yangi emas, zero audiovizual texnologiyalar (televideniye, kino, video) tovush, tasvir va matnni muvaffaqiyat bilan bera oladi. Multimedia texnologiyasining kiritgan yangiligi shundaki, u axborotlarni yetkazishning tegishli usullarini boshqarishga imkon berishi bilangina emas, mana shu axborotlarni tanlashda faol boʻlish imkonini ham beradi...”[Кашук, 2014: 184]. Multimedia vositalaridan foydalanishda bir qator imkoniyatlar yuzaga keladi. Bulardan biri ayni paytda yana bir qancha qoʻshimcha ma’lumotlar bilan tanishib chiqish uchun havolalarning mavjudligidir. Jumladan, ayrim giperhavolalar adabiy yoki musiqiy asarni ilk manba bilan, uning turli xildagi koʻrinishi yoki ijrosi bilan (turli variantdagi tarjimalari bilan) bogʻlash imkonini beradi. “Assosiatsiv giperhavolalar musiqiy, tasviriy san’at va badiiy asarlarni assosiatsiyalar, jismoniy tashuvchilar (CD, DVD, flesh-karta) hamda onlayn-maydon orqali sayt sahifalari yoki turli portallardagi axborotlar bilan bogʻlash orqali foydalana oladi”[Кашук, 2014: 188]. Bilamizki, ona tili darsliklarida “matn bilan ishlash”, “lugʻat bilan ishlash”ga doir mashq va topshiriqlar koʻplab kiritilyapti. Bu hodisa oʻqituvchi va oʻquvchilarni lugʻat kitoblari bilan ishlashga majbur etadi. Ayni paytda multimedia vositalarini qoʻllash foydalanish oʻqituvchi uchun ham, oʻquvchi uchun ham imkoniyat eshigini ochadi. Darsliklarning multimedia ilovalari yaratilganda, matnda berilgan soʻzning ustidagi tugmachani bosib, elektron lugʻatlar bilan ulanish, soʻzning mazmun-mohiyati mavjud manbalarda qanday ma’no kasb etib kelganligiga guvoh boʻlish imkoniyatlari paydo boʻladi. Metodist N.Yusufjonovaning umumiy oʻrta ta’lim maktablarida “Ravshan” dostonining oʻrganilishi haqida yaratgan interaktiv qoʻllanmasida

multimedia vositalaridan keng foydalanilgan. O‘quvchi darslikda berilgan parchaning matnini o‘qish bilan cheklanib qolmaydi. Doston parchasining ovozlashtirilgan variantini eshitishi, hatto baxshilarning ijrosi aks etgan kadrlarga ham ulanishi, tomosha qilishi mumkin (https://inter-aktiv/uz/mobile/index/html). Bunday jarayonlarni tashkil etish nafaqat mavzuning mohiyatini chuqur anglash, balki yosh avlod tarbiyasiga milliylik va qadriyatlarga sodiqlik tuyg‘ularini shakllantirishga ham yordam beradi. Bundan tashqari, respublikamizda yaratilgan www.uzedu.uz va www.multimedia.uz saytlarini ham yaqqol misol sifatida ko‘rsatib o‘tish mumkin.

Guohua Fu fikricha, til o‘rganishda multimedia vositalarining ahamiyati sezilarli darajada. Ayniqsa, ikkinchi tilni o‘rganishda filmlar va subtitrlardan foydalanish o‘rinli ekanligini, ingliz tilini ikkinchi til sifatida o‘rganuvchilar inglizcha matndan ko‘ra inglizcha videolarda haqiqiy talaffuzni eshitishlari, inglizlarga xos hayotni ko‘rishlari o‘rganuvchilarning ruhiyatini ko‘tarishini ta’kidlaydi[Guohua Fu, 2021: 18]. Nafaqat ikkinchi tilni, ona tilini o‘rganishda ham videomateriallarning samarasi katta. Matnda tasvirlangan voqea-hodisa videolavhalar orqali o‘quvchining ko‘z oldida gavdalantiriladi. Ba’zi hollarda o‘quvchi matnda o‘qigan axborotni tushunmay qolishi, tushunsa ham anglay olmay qolishi mumkin, anglamagan holatlarda savol berib mavhumlikni bartaraf etish, tushunchaning mag‘zini chaqishda hamma bolalarda ham ishtiyoq topilavermaydi. Lekin videoda ham eshitish, ham ko‘rish orqali tushunchani tez anglaydi va uzoq xotirada saqlanishi ta’minlanadi.

Multimedialar chiziqli multimedia hamda chiziqli bo‘lmagan multimedia deb tasniflanadi[https://ru.wikipedia.org/wiki/]. Ona tili darslarida chiziqli ko‘rinishidan ham, chiziqli bo‘lmagan ko‘rinishidan ham foydalana olishimiz mumkin.

Chiziqli multimedialar kino yoki roliklar ko‘rinishida bo‘ladi, undan foydalanilayotganda insonning ishtiroki bo‘lmaydi, balki faqat tomosha qiladi. Multimedia ilovalari bog‘lanish asosida bo‘ladi, ya’ni maxsus tugmalar biridan ikkinchisiga o‘tib boriladi. Uzviylik va izchillik ta’minlanadi. Asosan, darsning yangi mavzuni tushuntirish bosqichlarida chiziqli multimedialardan foydalanish unumliroq.

Chiziqli bo‘lmagan multimedialarga esa interaktiv uslubdagi kompyuter o‘yinlari kiradi. Bundan foydalanilayotganda odam bevosita uni boshqaradi va ishtirok etadi. Multimedianing bunday turi gipermedia deb ham yuritiladi. Interaktiv multimediali kompyuter o‘yinlaridan o‘rgatuvchi, mustahkamlovchi, baholovchi sifatida darsning mustahkamlash, takrorlash, uyga vazifa berish bosqichlarida foydalana olamiz. Bundan kelib chiqib, multimedia texnologiyalaridan uch xil holatda foydalanishimiz mumkin.

1. Prezentatsiya ko‘rinishidagi multimedialar. Bular multimedianing chiziqli turini tashkil etib, prezentatsiya ko‘rinishida bo‘ladi.

2. Interaktiv multimedia o‘yinlari. Bunday o‘yinlarni bevosita o‘quvchi boshqaradi, olgan bilimini sinaydi, o‘rganadi, baholanadi.

3. Multimediali internet-rusurslar. Bu asosida saytlar yaratiladi. O‘quvchi jarayonda o‘qituvchining ishtirokisiz mustaqil bilim oladi.

S.Adilova o‘z tadqiqotida ta’lim jarayonida kompyuter texnologiyalarini qo‘llashning samarali usullaridan biri multimedia darsliklaridan foydalanish samarali ekanligini[Adilova, 2004: 92] aytadi. Bu o‘rinda “multimedia darsliklari” deganda, butun darsni o‘z ichiga qamrab olgan multimediali internet-resurslar nazarda tutilgan.

Multimedia vositalari deganda uch turdagi vositalar nazarda tutiladi: uskunaviy, dasturiy hamda amaliy vositalar. Uskunaviy vositalarga kompyuter, skaner, videokamera, elektron doska, LCD proyektorlar kiradi. Dasturiy vositalarga Microsoft Word, Microsoft Power Point, iSpring, MtestX, Microsoft Office Publisher, HotPotatoes, Excel, Adobe Photoshop, CorelDraw, AutoPlay Media, Adobe Captivate, Adobe Audition, Adobe Illustrator, GoldWave, Crazy Talk kabi dasturlar kiradi. Amaliy vositalarga esa matn, ovoz, tasvir, sxema, jadval, diagramma va animatsiyalar kiradi. Ona tili ta’limida multimedia vositalaridan foydalanish uchun amaliy vositalarni tanlash, saralash, darsning maqsadidan kelib chiqib multimedia ssenariylarini yozish bevosita fan o‘qituvchilarining tashabbusi bilan amalga oshiriladi. O‘z g‘oyalarini mahsulotga aylantirishda dasturlovchi mutaxassislar bilan hamkorlik o‘rnatiladi. Multimedia texnologiyasini yaratishdagi texnologik jarayon quyidagicha amalga oshiriladi: dastlab g‘oya asosida ssenariy yoziladi. Mavzuga doir yakka tartibdagi ma’lumotlar (taqdimotlar, matn, jadval, tasvir, sxema, diagramma, audioyozuvlar) tayyorlab olinadi. Barchasi bitta papkada jamlanib texnologik

ishlov (animatsiya harakatlari, rang, ovoz) beriladi. Multimediali axborot majmuasi hosil qilinadi va saqlanadi (Qarang: 1-rasm).

Ona tili ta'limida axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanishni kengaytirish masalalari davlat ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan sanaladi. "Ammo ona tili oʻqituvchilarining aksariyati kompyuter imkoniyatlaridan foydalanish deganda, faqatgina matn muharriri va Power Point dasturlaridan foydalanishni tushunishadi. Aslida ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladigan bir qancha dasturlar borki, ona tili fani oʻqituvchilari bunday dasturlarning afzalliklaridan bexabar"[Muhammedova, 2020: 27]. Aslida umumta'lim fanlari oʻqituvchilari mazkur loyihalarni kompyuter dasturchilari bilan amalga oshiradilar. Kompyuter dasturchilari yaratiladigan mahsulotning sifati boʻyicha yetarli bilim va tajribaga ega boʻlishi mumkin, ammo metodik talablariga toʻla-toʻkis javob berolmaydilar. Shuning uchun zamonaviy ona tili oʻqituvchilari nafaqat oʻz mutaxassisliklarini, balki dasturiy multimedia mahsulotlarini yarata olish malakasini ham egallashlari lozim.

Tajribalardan shu ayonki, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta'lim tizimida joriy etish, dars mashgʻulotlarida ushbu texnologiyalarning turli shakllaridan samarali foydalanish nafaqat mazkur sohadagi bilim va malakalarning rivojlanishiga xizmat qiladi, vaholanki, oʻquvchi dunyoqarashining shakllanishiga, oʻz yoʻlini mustaqil tanlashiga, shaxsiy fazilatlarining mukammallashuviga ta'sir koʻrsatadi, bilim olish jarayoniga boʻlgan qiziqishini oshirishga, oʻrganishni takomillashtirishga xizmat qiladi. Koʻplab olimlarning fikriga koʻra, "AKT oʻquvchilarning ijodiy tafakkuri rivojlanishiga ham jiddiy ijobiy ta'sir koʻrsatadi. Matn, nutq, grafika, animatsiya, audio, video kabi turlicha usullarning kombinatsiyasidan yaratilgan yangi, zamonaviy mahsulotlardan ona tili mashgʻulotlarida unumli va oʻrinli foydalanib darsning mazmuni va shaklini ta'minlash oʻquvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, kreativ fikrlashlarini takomillashtirishda yangi imkoniyatlar eshigini ochadi: ma'lumotlardan tezkor foydalanish, audio va vizual materiallardan istalgan makon va zamonda foydalana olish mumkinligi, koʻrib idrok qilishni, mustaqil, ongli ravishda xulosa chiqarishni osonlashtiradi"[Kuldasheva, 2021: 48]. Oʻqituvchi, olim va dasturchining integrativ yondashuvi yangi ta'lim muhitini yaratadi va ta'lim jarayoni natijasidagi sifatning oshishida muhim ahamiyat kasb etadi.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Адилова С.А. Ўзбек тили машғулотларини компьютер технологиялари воситасида ташкил этиш (олий таълим муассасаларининг русийзабон гуруҳларида). Пед. фан. ном. … дисс. – Тошкент, 2004. – Б. 156.

2. Guohua Fu. The effectiveness of using multimedia for teaching phrasal verbs in community-collece esl classes. In Partial Fulfillment of the Requirements for the Degree Doctor of Education. San Francisco. May 2021.

3. Muhammedova S., Abdullayeva M., Yuldasheva Sh., Eshmatova Y. Oʻzbek tili va adabiyoti ta'limida zamonaviy axborot texnologiyalari. – T.: "Excellent Polygraphy", 2020. – Б. 260.

4. Кашук С.М. Стратегия интеграции мультимедиа технологий в систему языкового образования (на примере обучения французскому языку). Дисс. на соискание уч. степени доктора педагогических наук. – Москва, 2014. – С.184.

5. Kuldasheva S. Multimedia vositalaridan foydalanish mahorati // Til va adabiyot ta'limi. – Тошкент, 2021. – № 2. – B.47 – 48.

6. Полат Е.С. Новые педагогические и информационные технологии в системе образования. Учеб.пособие для студ.пед. ВУЗов и системы повыш. квалиф пед. кадров. – Москва, Издательский центр «Академия», 2003. – С. 272.

7. Рустамова Н.Р. Умумий ўрта таълим муассасалари ўқувчилари медиамаданиятини ривожлантириш технологияси (7-9-синфлар мисолида). Пед.фан.б. фал.док…дис. – Тошкент, 2019. – Б. 151.

8. Шлыкова О.В. Культура мультимедиа: Уч. пособие для студентов / МГУКИ.- Москва, ФАИР-ПРЕСС, 2004. – С.415.

9. Ғозиев Э. Тафаккур психологияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1990. – Б.184.

10. https://ru.wikipedia.org/wiki/

| | |
|---|---|
| **KIRISH**. **Shuhrat Sirojiddinov.** Global ta'limdan milliy maqsadlar sari | 4 |
| **GLOBAL TA'LIM VA MILLIY METODIKA** | |
| **Qozoqboy Yo'ldoshev.** Lirik asarlarni tahlil qilish yo'llari | 5 |
| **Shohidaxon Yusupova**. Matn bilan ishlashga psixolingvistik, kognitiv va funksional yondashish masalalari | 7 |
| **Roza Niyozmetova**. Adabiy ta'limda internet ma'lumotlaridan foydalanish | 10 |
| **Valijon Qodirov.** Oliy filologik ta'limda adabiyot fanlarini o'qitish borasida mulohazalar | 14 |
| **Mahkamoy Tursunova**. Sharqona o'qitish usullari – adabiyot mashg'ulotlarining yuksak samaradorligiga erishish vositasi sifatida | 16 |
| **Klaraxon Mavlonova**. Ona tili darslarida global fuqarolik ko'nikmasini shakllantirish | 18 |
| **Zavqiddin Suvonov**. Badiiy matnning filologik ekspertizasi metodologiyasi xususida | 22 |
| **Saodat Kambarova.** Badiiy asarlarni o'rganishda lateral metodlar | 24 |
| **F.Egamberdiyeva, M.Usmonboyeva.** Talabalarda kreativ tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish masalalari | 26 |
| **Xolida Tojiyeva.** Mumtoz adabiyot namunalari janr xususiyatlarini o'rganishning ahamiyati | 29 |
| **Nursulu Nagmetova.** O'smirlarni mustaqil hayotga tayyorlashda umumiy o'rta ta'lim maktablari va ijtimoiy institutlar hamkorligi | 31 |
| **Mahfuza To'ychiyeva.** Adabiy ta'limdagi ijodiy fikrlashning xalqaro ahamiyati | 33 |
| **Maxsuda Sariboyeva, Mahfuza Tuychiyeva.** Yoshlar ongiga ma'naviy qadriyatlarni singdirishda innovatsion va kompetensiyaviy yondashuv | 37 |
| **Okila Turakulova.** O'quvchilarda mutolaa madaniyatini rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar | 41 |
| **Mohigul Fozilova.** Badiiy asar mazmunini o'qib idrok qilish | 44 |
| **Intizor Abdirimova.** Loyihalash faoliyatining tashkil etish bosqichlari | 47 |
| **Xilola Suyunova, Dilorom Suyarova.** Til ta'limida integratsiyaning globallashuvi | 49 |
| **Xolbibi Qurbonova.** Til ta'limida "ijodiylik" masalalari | 52 |
| **Barno Abdurahmonova, M. Abduqodirova.** "Vatanim" she'ri matni ustida ishlash orqali o'quvchilar tafakkurini rivojlantirish | 53 |
| **Nurislom Xursanov.** Tilni o'qitishda talabalarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish muammolari | 57 |
| **Aysara Najimova.** Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilar nutqini o'stirish yo'llari | 59 |
| **Rustam Yo'ldoshev.** O'zbek tilida nomi noaniq, yetim qo'shimchalar o'z oilasini topsin! | 61 |
| **Nazokat Yusufjonova.** Ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanishning afzalliklari | 63 |

| | |
|---|---|
| **Zoya Sarsenbaeva.** Ingliz va o‘zbek adabiyotida modernizm | 66 |
| **Husniddin Qoraboyev.** Boshlang‘ich sinf o‘qish savodxonligi darslaridan uy vazifalar 4K ko‘nikmasini shakllantirish | 70 |
| **Xamza Elliyev.** Maktab o‘quvchilarining bilimini baholashda xorij tajribasini qo‘llash | 73 |
| **Munira Shodmonova.** Diskurs-tahlil tushunchasining nazariy-amaliy jihatlari | 76 |
| **ADABIYOTSHUNOSLIKNING DOLZARB MUAMMOLARI** | **79** |
| **Safo Matchonov.** Miraziz A’zam ijodida falsafiy g‘oyalar talqini | 80 |
| **Sh.N.Axmedova.** Zamonaviy turk she’riyatida yomg‘ir obrazining talqinlari | 84 |
| **Marg‘uba Abdullayeva.** G‘azal tahlili xususida | 87 |
| **Obidaxon Fayzullayeva.** She’riy turkumlarda badiiy shartlilik va ishoralarning poetik funksiyasi | 91 |
| **Zavqiddin Suvonov.** Filologik ekspertiza: metodologiya obyekti | 95 |
| **Komiljon Hamroyev.** Hikoyada badiiy metamorfoza shakllari | 99 |
| **M.Usmanova, Sh.Mamadaminova.** Bolalarni xalq og‘zaki ijodi namunalari vositasida tarbiyalashning mazmuni | 106 |
| **M.A.Yakubova, Muxlisa Begimova.** Oilada xalq og‘zaki ijodi namunalari vositasida farzandlarni tarbiyalash | 108 |
| **Nilufar Chuliyeva.** Zamon va makonning mifopoetik talqini (Nazar Eshonqul hikoyalari misolida) | 112 |
| **Kabil Kubayev.** Afsonalarning badiiy talqini | 117 |
| **Abdunabi To‘ychiyev.** Nurali Qobul asarlarining mavzu ko‘lami va obrazlar tabiati | 120 |
| **Djurayeva Xusnigul.** Uch buyuk siymo | 124 |
| **Oyistaxon Usmonova.** Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romanini tahlil qilish orqali yoshlarning mutolaa madaniyatini rivojlantirish | 126 |
| **Dilnoza To‘rayeva.** Hissiy tafakkurning badiiy talqini | 129 |
| **Abdulatif Primov.** Abdulla Qodiriy nasrida folklor unsurlarining roli | 132 |
| **Hulkar Aliqulova.** Bolalar folklorining janr xususiyatlari | 135 |
| **Dilafruz Nazarova.** Xoja va Rabg‘uziy | 138 |
| **Rahim Mardanov.** Tasavvufiy obrazlar talqini haqida olimlarning fikrlari | 140 |
| **Sardor Jo‘raqulov.** Alisher Navoiy qit’alari xususida | 142 |
| **Olmos Xurramov.** Badiiy asar tarixiyligi: umumnazariy tamoyillar | 145 |
| **Shuxrat Lolayev.** Jadid adabiyotida ma’rifatparvarlikning shakllanish poydevori | 149 |
| **J.A Tuzikenova.** So‘z ma’nolari va so‘z tarkibi so‘z boyligini oshirish vositasi sifatida | 152 |

| | |
|---|---|
| **Xumora Jo‘raqulova.** Ma’rifiy roman tematikasi (N.F. Karimov romanlari tahlili misolida) | 155 |
| **Gulfiza Olimova.** Xorazm “Oshiq” turkumi dostonlari hamda “Kitobi Dada Qo‘rqut” eposidagi motivlarning qiyosiy o‘rganilishi | 157 |
| **Sayohat Arziqulova.** Zamonaviy o‘zbek va turk ayollar she’riyatida shakliy izlanishlar | 160 |
| **Ayimxan Eshniyazova.** “Farishta” – Bolalikning badiiy talqini | 165 |
| **Almaz Kadrekova.** Umumiy o’rta ta’lim maktablarida bola huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishnig amaldagi holati | 167 |
| **Firuz Soliyev.** O‘zbek va ingliz tillaridagi detektiv asarlarning lingvistik va kognitiv – semantik jihatlari tahlili | 169 |
| **TIL VA ADABIYOT O‘QITISH MUAMMOLARI: YECHIM VA TAKLIFLAR** | **173** |
| **Shahlo Naraliyeva.** Adabiyot darslarini tashkil etishda Blum taksonomiyasi | 174 |
| **Gulnoza Jurayeva.** O‘zbek bolalar adabiyotini o‘qitishda hajviy she’rlarning ahamiyati | 176 |
| **Shahnoza Raxmonova.** Alisher Navoiy fardlarini ifodali o‘qitish tajribasidan (8-sinf “Adabiyot” darsligi misolida) | 180 |
| **Husniddin Suyunov, Xolida Bozorova.** Boburning “Boburnoma” asarini o‘rganishda fanlararo integratsiyadan foydalanish | 182 |
| **Azamat Uralov.** Ayrim metodlarni filologik ta’limda ishlatilishi | 189 |
| **Mahfuza Usmanova, Shodiya Malikova.** Ta’limiy o‘yinlar orqali bolalarning og‘zaki nutqini o‘stirish | 194 |
| **Mutallib Hazratqulov, Hulkar Boltayeva, Xurshida Qilichboyeva.** Grammatik qoidalarni kontekst asosida o‘rgatish usullari | 196 |
| **Muhayyo Yo‘ldosheva.** Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida asar tahlili masalalari | 200 |
| **Iroda Ishonxanova. O‘rta umumta**’lim maktablarida Alisher Navoiy epik asarlarini o‘rganishga innovatsion yondashuv | 204 |
| **Saodat Eshpulatova.** Nasriy asarlarni o‘rganishda interfaol metodlarning o‘rni | 207 |
| **Feruzaxon Karimova.** Muloqotdagi nutqiy “o‘yinlar” haqida | 211 |
| **Saule Tajbenova.** Ona tili darslarida orfografik qoidalardan foydalanish orqali o‘quvchilarning lingvistik kompetensiyalarini rivojlantirish | 214 |
| **Akbar Ruziyev.** Xususiy diskursning ayollar va erkaklar nutqidagi xususiyatlari | 217 |
| **Sanobar Kuldasheva.** Til ta’limida raqamli yondashuvlar | 220 |
| **Surayyo Inomjonova.** Adabiy ta’limda o‘quvchilar tanqidiy tafakkurini rivojlantirish usul va vositalari | 224 |
| **Farrux Qulsaxatov.** Adabiyot darslarida fanlararo integratsiyaning o‘ziga xos xususiyatlari | 226 |
| **Nurzod Norqulov.** Alisher Navoiy hayotini o‘rganishda manbalardan unumli foydalanish | 230 |
| **Munisa Qosimova.** Keys texnologiyasining adabiyotga kirib kelishi | 232 |
| **Abdulla Mahmado‘stov.** Adabiyot o‘qitishda fanlararo integratsiyani yo‘lga qo‘yish | 235 |

| | |
|---|---|
| **Oysuluv Musurmonkulova.** To‘g‘ri fikrlash ezgulikni anglashdir | 238 |
| **Maxfuza Abdialimova.** Qozoqboy Yo‘ldoshning badiiy asarga yondashish tamoyillari | 243 |
| **Ra’no Xoliqova.** 5–6-sinf o‘quvchilarining kreativ fikrlash ko‘nikmalarini o‘quv topshiriqlari asosida rivojlantirish | 248 |
| **Zaynab Kurbanova.** Leksikologiya va frazeologiyaga oid mavzularni o‘qitishda nutqni rivojlantirish usullari | 252 |
| **Didora Ibragimova, Guljahon Muxtorova.** O‘quvchilarda o‘qish savodxonligi va funksional savodxonlikni shakllantirish omillari | 255 |
| **Dildora Ibragimova, Nilufar Ismatova.** O‘qish savodxonligi darslarida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining badiiy asarlarni sharhlash ko‘nikmalarini shakllantirish | 257 |
| **Bashorat Muminova.** Ish qog‘ozining asosiy matni ustida ishlash | 259 |
| **Intizor Jumaniyazova.** Fardlar tahlili orqali o‘quvchilar tanqidiy tafakkurini rivojlantirish | 262 |
| **Mirzabek Xolyorov.** Abdulla Oripov – tabiat musavviri | 267 |
| **Husniddin Qoraboyev.** Boshlang‘ich sinf o‘qish savodxonligi darslaridan uy vazifalarini samarali tashkil etishning ahamiyati | 269 |
| **Mahliyo Elboyeva.** Maktab ta’limida bolalar adabiyoti namunalarini o‘qitishda psixologik metodlardan foydalanish imkoniyatlari | 271 |
| **Shoxista Mahmudova.** Biografik talqinning ijodkor obrazini o‘rganishdagi o‘rni | 276 |
| **Nargiza Ergasheva.** Adabiyot darslarida loyiha ishi: Kitob treyleri (“Book trailer”) | 280 |
| **Nilufar Kadirova.** O‘quvchilar tanqidiy tafakkurining shakllanishida “aydos-konspekt” usulining o‘rni | 282 |
| **Maxmuda Yuldasheva.** Adabiy ta’limda lirik, epik va dramatik asarlarni o‘qitishda evristik yondashuvdan foydalanish amaliyoti | 288 |
| **Ozoda Shukurboyeva.** O‘quvchilarda badiiy asarlarni tahlil qilish layoqatini shakllantirishning nazariy asoslari | 295 |
| **Madina Abduqodirova.** Kognitivizm va uning adabiy ta’limga tatbiqi | 297 |
| **Nilufar Turg‘unova.** Faoliyat mazmuniga ko‘ra o‘quv loyihalarining turlari | 304 |
| **Gulshoda Ruziyeva.** Zamonaviy tilshunoslikning sotsioprogmatik xususiyatlari | 306 |
| **Nodirbek Xasanboyev.** Oliy adabiy ta’limda masofadan o‘qitish muammo sifatida | 308 |
| **Madina Axmadjanova.** Ona tilini o‘qitish muammolari (Turkiyada ona tili ta’limini o‘qitish misolida) | 311 |
| **Malika Axmadjanova.** Til o‘qitishda lug‘at boyligini darajalash tamoyillari | 314 |
| **Laylo Xursanova.** Xorijiy tilini o‘qitishda mediata’lim vositalaridan foydalanish holati | 317 |
| **Shaxnoza To‘rayeva.** 5-sinf “Ona tili” darsligida grammatik savodxonlikni shakllantiruvchi o‘quv topshiriqlari tahlili | 320 |
| **Zebiniso Davronova.** Ona tili darslarida yozma nutqni rivojlantirishning nazariy va metodik asoslari | 322 |
| **Gulnora Umarova.** Nega “Hayrat ul-abror” dostonini sharhlab o‘qitish kerak? | 327 |

| | |
|---|---|
| **Shoxina Baxadirova.** Masofaviy ta'limning tillarni o'qitishda tutgan o'rni | 331 |
| **Xosiyat Navruzova.** Qo'shma gap shakllarining o'zlashtirilishiga oid tadqiqotlar tahlili | 334 |
| **Elmurod Sharipov.** Adabiyot va san'at asarlarining estetik tarbiyadagi o'rni va ahamiyati | 336 |
| **Gulnora Umarbekova.** Integrativ yondashuv asosida talabalarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishning nazariy asoslari | 338 |
| **TALABALAR MINBARI: TIL VA ADABIYOT TA'LIMIDA INNOVATSION G'OYALAR** | **341** |
| **Shalola Raximova.** Uzluksiz ta'limda Anvar Obidjon ijodining o'rganilishi | 342 |
| **Maftuna Narziyeva.** She'riy asarlar tahlilida peyzaj namunalaridan foydalanish | 345 |
| **Juldız Jamgırbaeva.** Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilariga bog'lanishli nutqni o'rgatishning nazariy asoslari | 350 |
| **Dilafruz Meliboyeva.** 5-sinf adabiyot darslarida sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlarini o'tkazish yuzasidan mulohazalar | 352 |
| **Mushtariy Rasulova.** Leksikografiyaga zamonaviy yondashuv: Muammo va yechimlar | 355 |
| **Nigora Botirova.** Dilshod Rajab ijodini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o'qitish | 359 |
| **Dilchehra Toshpolatova.** Abduqayum Yo'ldoshev hikoyalarida analogiya hodisasi | 363 |
| **Feruza Itolmasova.** O'zbek adabiyotida fojiaviylikning o'rganilishi | 365 |
| **Nilufar G'ofurova.** Adabiyotda taxalluslarning paydo bo'lish sabablari | 368 |
| **Sardor Jo'raqulov.** "Uloqda" hikoyasini o'rganishning bir jihati | 371 |
| **Shohrux Nuraliyev.** Dilshod Rajab she'riyatida bolalar ruhiyatining manzaralari va jumboq janri | 373 |
| **Mamura Norjigitova.** Chexovning "Xameleon" hikoyasida sarlavhaning badiiy vazifasi | 376 |
| **Muhayyo Rahimqulova.** Maqol janri va uni dostonlarda tutgan o'rni | 378 |
| **Pokiza Nurmamatova.** Rauf Parfi sonetlarida ijtimoiy ruh va novatorlik | 381 |
| **Gulshoda Sobirova.** Kichik epik asarlarni o'qitishda interfaol metodlardan foydalanish | 384 |
| **Sabina Xolova.** Normurod Norqobilovning "Oqbo'yin" qissasini o'qitishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish | 386 |
| **Gulinor Xolmurotova.** Erkin Malik asarlarida ustoz obrazining badiiy talqini | 388 |
| **Dilnoza Narzullayeva.** Ernest Seton-Tompson asarlarida bo'ri obrazi talqini | 391 |
| **Mohlaroyim Sayfiddinova**. Tarixiy asarlarni qiyosiy usulda o'rganish | 395 |
| **Madinabonu Odilova.** Adabiy ta'limda o'qib tushunish ko'nikmasini rivojlantirish usullari | 397 |

| | |
|---|---|
| **O‘g‘iloy Ikromova.** O‘quvchilarning nutqiy ko‘nikmalarini o‘stirishda noan’anaviy to‘garaklarning o‘rni | 400 |
| **Madinaxon Erkinova**. O‘zbek adabiyoti tarixini zamonaviy yondashuvlar asosida o‘qitish | 402 |
| **Maftuna Ravshanova.** Turkiy ijodkor ayollar zikri | 404 |
| **Mohigul Rahimqulova.** Alisher Navoiy asarlarini umumta’lim maktablarda o‘qitilishida zamonaviy pedagogik vositalarning o‘rni va ahamiyati | 407 |
| **Durdona Tursunaliyeva.** Javlon Jovliyev ijodida ayol obrazi talqini | 410 |
| **Bekzod G‘oziyev.** O‘quvchilar bilimini nazorat qilish usullari | 412 |
| **Farangiz Zokirova.** Adabiyot darslarida Blum taksonomiyasi samaradorligini oshirish | 413 |
| **Malikabonu Elmonova.** Ingliz va o‘zbek tilidagi maqollarning kontrastiv turlari | 416 |
| **Munisa Axmatxodjaeva.** Til – ijtimoiy hodisa | 418 |
| **Alina Gulmanova.** O‘zbek milliy pedagogikasi | 419 |
| **Zulxumor Tursinmurodova.** “Alpomish” dostonining yoshlar axloqiy tarbiyasidagi o‘rni | 421 |
| **Ozoda Abdug‘ofurova.** O‘zbek tili sintaksisi ta’limoti va taraqqiyoti | 423 |
| **Maftuna Ibrohimova.** Rasmiy-idoraviy uslubning qo‘llanish sohalari | 425 |
| **Feruza Orazbaeva.** Diplomatik yozishmalar tasnifi | 426 |
| **Jasmin Risbayeva.** XX-XXI asr o‘zbek tilining rivojlanish jarayoni | 428 |
| **Dilnura Ulasheva.** O‘zbek adabiy tili me’yorlari | 429 |
| **Guljaynar Baydullayeva.** Morfemika tilshunoslikning muhim bo‘limi | 431 |
| **Setora Hamidullayeva.** Til va nutq tushunchasi | 433 |
| **Sitora Xolmaxmatova.** Gapning ajratilgan bo‘laklari haqida nazariy qarashlar | 434 |
| **Xulkaroy Mirtolipova.** Til o‘qitishda so‘z birikmasining ahamiyati | 436 |
| **Mashxura Xolmamatova.** Ona tili darsida lug‘at bilan ishlash | 439 |
| **Ruxshona Raxmatullayeva.** Rasmiy uslubning grammatik aspekti | 441 |
| **Ozoda G‘opporova.** Ergashgan qo‘shma gaplar tarkibini bog‘lovchi vositalar | 442 |
| **Diyora Qambarova.** Umumta’lim maktablarining adabiyot darslarida sharadalar (so‘z o‘yini) dan foydalanishning o‘ziga xos xususiyatlari | 444 |
| **Gulnoza Nasirdinova.** Gulyora Mirzaqahhorova**.** O‘quvchilarda o‘zbek tilida esse yozish ko‘nikmalarini shakllantirish va undagi muhim jihatlar | 448 |
| **Anvar Eshnazarov.** “O‘rda” so‘zining kelib chiqish tarixi | 451 |
| **Dilnoza Tursunova.** Elis Manro hikoyalarida badiiy detalning katta o‘rni | 453 |

| | |
|---|---|
| **Ahliddin Tursunov.** Xudoyberdi To'xtaboyev hikoyalari tahlili | 456 |
| **Mehrinoza Farmonova.** Navoiy dahosi haqida | 458 |
| **Zarinabonu Keldiyorova.** Hindiston ta'lim tizimida o'quv topshiriqlari mazmuni (5-sinf Haydarobod darsligi misolida) | 460 |
| **Nazokat Nurullayeva, Mahliyo Xudoyberdiyeva.** Iqbol Mirzoning "Bonu" romanida ayol xarakterining shakllanishi | 463 |
| **Shahruza Fazliddinova, Nilufar Ismatova.** Ona tili lug'at tarkibining ma'no jihatidan tasniflanishi | 465 |
| **Laylo Abdirashidova.** "Majolis un-nafois" da ustoz-shogird an'analari xususida | 467 |
| **Sevinchxon Fayzullayeva.** O'tkir Hoshimov ijodida peyzaj va portret | 468 |
| **Sabrina To'ymurodova.** Jadid adabiyotida o'zbek qizi ruhiyati (A.Qodiriy, Cho'lpon va Hamzaning asarlari asosida) | 471 |
| **N.R.Palvanbayeva.** Boshlang'ich sinflarda ona tilini o'qitishda innovatsion usullar va energjayzer o'yinlar | 474 |
| Sevara Bobonazarova. Badiiy matn bilan ishlashning asosiy yondashuv va tamoyillari | 476 |
| **Kamola Adashaliyeva.** Ikki nashr qiyosi | 479 |